

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
1-davolash fakulteti
1-son fakultet va gospital terapiya, revmatologiya, kasb patologiyasi kafedrasining "Kitob – yurak nurini yorituvchi chiroq" mavzusiga bag'ishlab Olmazor tumani "Guruchariq" mahallasidagi 28 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazgan tadbir
BAYONNOMASI

17.09.2025 y **Toshkent shahri**

Kun tartibida: Olmazor tumani "Guruchariq" mahallasidagi 28 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida "Kitob – yurak nurini yorituvchi chiroq" mavzusida tadbir o'tkazish

Qatnashdilar: TDTU Yoshlar bilan ishlar bo'yicha prorektori Bobomurotov Turdiqul Akramovich, kafedra mudiri Nabiyeva D.A., professor Rizamuxamedova M.Z., dotsentlar: Matchanov S.X., Djuraeva E.R., Abduazizova N.X., Agzamova G.S, Sultanova M.X., Midasov M.M., Muxammadieva S.M., Xidoyatova M.R., Bekenova G.T., Kenjaboev D.K., Sagatova D.R., Abdiyeva Y.A., Pulatova Sh.B., katta o'qituvchilar: Tashmuxamedova Sh.K., Ziyayeva F.K. assistentlar: Berdiyeva D.U., G'aniyeva N.A., Shiranova Sh.A., Ibragimova N.U., Isroilov A.A., Najmutdinov A.SH., Xodjixonov Xusan Axralovich - "Guruchariq" MFY raisi, 28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori, Qosimova Gulnoza Rustamdjanovna - Guruchariq MFY xotin-qizlar faoli, Xaydaraliev Avazbek Baxromali o'g'li - Guruchariq MFY yoshlar bilan ishlash yetakchisi, mahalla fuqarolari.





Tadbirni TDTU Yoshlar bilan ishlar bo'yicha prorektori Bobomurotov Turdiqul Akramovich ochib berib, ma'lumki "Kitob – yurak nurini yorituvchi chiroq" dir. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi. Inson hayotida kitobning o'rni beqiyosdir. Kitob o'qish nafaqat so'z boyligini ko'paytiradi, balki umumiy savodxonlikni ham oshiradi. Shu bilan birga so'zlashish madaniyatini tokomillashiga olib keladi – deb gapirib o'tdilar. So'ngra so'z Guruchariq" MFYda

joylashgan 28 - sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktoriga berildi. Ular bunday tadbirlar ko‘plab o‘tkazilishi lozimligini, buning natijasida o‘quvchilarning bilim darajasini ortishi, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga yordam berishi haqida to‘xtalib o‘tdi. So‘ngra so‘z kafedra mudiri D.A.Nabiyevaga berildi va ular barchaga ma’lumki, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Shu bois prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki to‘rtinchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan – deb o‘z so‘zlarini yakunladilar.

Keyin so‘z kafedraning boshqa professor-o‘qituvchilariga berildi. Ular allomalar, donishmandlar va yozuvchi olimlar kitobning mo‘’jizaga, nurga, tafakkur quvvati va ustuniga, mangulik va ma’naviyat timsoliga, bilim manbaiga, sodiq do‘stga, davr ko‘zgusiga o‘xshatganlar. Eng muhimi, kitob jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashda yengilmas kuchdir. Shu munosabat bilan 28 - sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari bilan birgalikda «Kitob - qalb gavhari» tadbirida 4 tashabbus bo‘yicha amalga oshirildi. Bugungi tadbirda maktab o‘quvchilari o‘zlari o‘qigan kitoblari haqida olgan taasurotlarini baham ko‘rdilar. Tadbir so‘ngida sinf rahbari so‘zga chiqdi: o‘quvchilar o‘rtasida bo‘lgan kitobxonlikda ularning kitobga bo‘lgan ishtiyoqini ko‘rishingiz mumkin. Ularning kitobdan olgan taasurotlari ko‘rsatgan sahna ko‘rinishlarida yaqqol ijobiy tomondan ko‘rinib turibdi. Birgina misol: xalqaro tadqiqotlar va so‘rovlar rivojlangan G‘arb mamlakatlarida internetdan foydalanuvchilar soni qanchalik oshayotgan bo‘lsa, kitob sotib olish va o‘qish ham xuddi shunga muvofiq ravishda o‘sayotganligini ko‘rsatgan. Vaholanki bu tadqiqotlar internet texnologiyalari nihoyatda taraqqiy qilgan va uning xizmatlari kun sayin oshayotgan G‘arb davlatlarida o‘tkazilgan. Bu narsa kitobning o‘rnini hech narsa bosa ololmaganligini, uning mo‘jizaviy kuch-qudrati oldida internetdek eng qulay va zamonaviy vosita ham ojiz qolishini ko‘rsatayapti.

Tadbir yakunida 28 - sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilariga 100 dan ortiq kitoblar taqdim etildi. Maktab direktori kafedra xodimlariga chuqur minnatdorchilik bildirishdi, kasbiy faoliyatida omad va zafarlar tilab qolishdi.

Kafedra mudiri, t.f.d., professor: **Nabiyeva D.A.**

Ustoz - shogird ishlari bo‘yicha mas’ul: **G‘aniyeva N.A.**